

Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari

Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li

Bugungi rivojlanayotgan zamonda hayotimizning har bir jabhasi jadallik bilan o'zgarib bormoqda. Bir joyda harakatdan to'xtab qolgan odam xuddi dengizga cho'kayotganday yo'qlik qariga g'arq bo'ladi. Chunki hozir bir daqiqa befarq bo'lgan odam ko'p narsa yo'qotadi. Bugun imkoniyat judayam ko'p yashash uchun, ishlash uchun, ta'lim olish uchun, sog'liqni saqlash va hokazolar. Insonlar bugungi kunda har tomonlama ish topib, oson daromad qilishlari mumkin, faqat buning uchun bilim, salohiyat, kuchli malaka va albatta chaqqonlikka ega bo'lishlari kerak. Hozirgi zamonda ishsizman deb o'tiraverish yaxshi holat emas. Chunki aholi daromadini oshirish, ularni ish bilan ta'minlash uchun mamlakatimiz tomonidan ko'plab ishlar qilinmoqda. Jumladan yoshlarga subsidiyalar, foizsiz kreditlar, imtiyozlar, kam ta'minlangan oilalarga uyida parranda boqib o'z - o'zini daromad bilan ta'minlashi uchun yoki issiqxona qurish uchun, chorva mollari boqish uchun kam foizli kreditlar ajratilmoqda.

Muhtaram prezidentimizning 2022 - yil, 6 - oktabrdagi Sirdaryo viloyatiga tashrifi mobaynida viloyatni rivojlantirish, aholi turmush darajasini yaxshilash va ularni ish bilan ta'minlash borasida ko'plab ko'rsatmalar berdilar. "Bugun Sirdaryoga kelishimizdan asosiy maqsadimiz - viloyatni aholisini to'liq ish bilan ta'minlangan hududga aylantirish mezonlarini belgilash.

Birinchi mezon - aynan Sirdaryo sharoitida, bu - yer. Klaster egalarining dunyoqarashi o'zgaryapdi, sifatga harakat qilyapdi, daromadini oshiryapdi. Endi ular xalq manfaatiga xizmat qilishi kerak. Bu manfaat birinchi navbatda - ish o'rni. Masalan, aholiga dehqonchilik uchun yer ajratish orqali 100 ming ish o'rni yaratish mo'ljallanyapdi.

Ikkinchidan - bu yerlarga nimadan daromadi bo'lsa, shuni ekish bo'yicha erkinlik beriladi. Kim bozorni tushunib ko'proq mehnat qilsa, naqd daromad oladi. Yana bir muhim tomoni, agar Sirdaryo viloyatida ishsizlikni tugata olsak, bu boshqa hududlarga ham namuna bo'la oladi": dedilar mamlakatimiz prezidenti.

Bugungi kundagi zamonaviy mehnat bozorlari avvalgi yillardagi mehnat bozorlaridan farq qiladi. Bugun inson har qanday qobiliyati orqali pul topishi ya'ni mehnat qobiliyatini moddiylikka aylantirishi mumkin. O'tgan asrlarda odamlarda aqliy intellektini g'ayrioddiy fikrlash qobiliyatini mehnat bozoriga taklif qilish imkoniyati bo'lmagan. Ular faqat mavjud jismoniy mehnat qobiliyatidan foydalanishgan. Ammo bugungi kunda bu holat tubdan farq qiladi. Hozirgi kunda odamlarda qo'lidan keladigan har qanday qobiliyatini moddiylikka aylantirish imkoni bor.

Ishsizlik — bir qism iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi. O'zbekistonda Ishsizlik tushunchasi rasman 1992-yil "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi bilan me'yoriy kuchga ega bo'ldi.

Ishsizlik sababi har xil bo'lganidek uning shakllari ham turlicha. Ishsizlik ning asosiy shakllari: friksion ishsizlik - turli sabablarga ko'ra (yangi yashash joyiga o'tish, kasbni o'zgartirish, bola boqish, yangi ish tanlash) vaqt-vaqti bilan ishsiz qolish. Bu ixtiyoriy ishsizlik hisoblanadi. Tarkibiy ishsizlik - ishlab chiqarish tuzilmasi o'zgartirilgan sharoitda eski tarmoqlarda ishlab kelgan kishilarning yangi tarmoqlarga kerak kasbni hali o'zlashtirmagan kezlarida yuz beradi. Davriy ishsizlik - iqtisodiy tangliklar bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarishning pasayib ketishi natijasida yuzaga keladigan ishsizlikdir. Bu majburan ishsiz qolishdir. Mavsumiy ishsizlik - mavsumiy ishda band bo'lganlarning mavsum tugagach, ishsiz qolishi. Yashirin ishsizlik - rasman ish bilan band bo'lganlarning faqat qisman ishlashi. Unga

qisqartirilgan ish kuni yoki ish haftasiga o'tganlar, ish yo'qligidan haq berilmaydigan ta'tilga chiqqanlar kiradi.

Ishsizlar ishlayotganlar bilan bir qatorda mamlakat ish kuchini tashkil qiladi. Iqtisodiyotda Ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad aholining ish bilan bandligini yaxshilash orqali mamlakat (korxonalar) ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iboratdir.

O'zbekistonda ishsizlik sabablari: maosh kammi yoki yaxshi xodim? O'zbekistonda shunday holatni kuzatish mumkin - bir qarashda ishsizlik darajasi yuqori, lekin shu birga aksariyat tashkilotlar yaxshi xodim izlab yurishibdi. O'zi qanday odam ishsiz sanaladi? Ishsizlik - ishlash layoqatiga ega bo'lgan va mehnat qilish istagini bildirgan iqtisodiy faol fuqarolarning ish topa olmasligi.

Ishsizlik juda ko'p muammolarga zamin yaratadi - jinoyatchilik oshadi, oilalarda notinchlik paydo bo'ladi, bolalarning tarbiyasi buziladi. Ishsizlikning ma'lum darajaga yetishi hatto davlatchilik tanazzuliga ham sabab bo'lishi mumkin. Ya'ni bu yerda illatli doira paydo bo'ladi: ishsizlar ko'payishi davlatni zaif qiladi, zaif davlatda esa ishsizlar yanada ko'payadi. Lekin dunyoning xox rivojlangan, xox rivojlanayotgan biror davlati yo'qki, ishsizlik muammosi bo'lmasa.¹

Bizni ko'proq o'zimizdagi holat qiziqtiradi. O'zbekistonda rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ishga layoqatli aholining taxminan 10 foizi ishsiz. Ishsizlik jiddiy muammo ekanligi, unga qarshi astoydil kurashish zarurligini e'tirof etgan holda, bugun masalaga ikkinchi tarafdin yondashib ko'ramiz. Bugun aksariyat tashkilotlar, ayniqsa nodavlat kompaniyalar yaxshi xodimlar qidirib, bo'sh ish o'rinlari haqida e'lonlarni muntazam joylashtirib borishadi. Eng katta ish beruvchi bo'lgan davlat tizimida ham vakant talaygina.

Afsuski, juda ko'pchilik yoshlar, ya'ni mehnat bozorini muttasil to'ldirib borayotganlar amalda imkonsiz talablar bilan ham qimmatli vaqtlarini, ham yaxshi imkoniyatlarini yo'qotadi. Chunki hech kim yosh mutaxassisni diplomi borligi uchungina, yoki shu odam ishsizligi uchungina (deylik) 10 mln so'm maosh bilan kutib o'tirmaydi. Har qanday ishga va maoshga talabgor zarur bo'lsa eng quyi pog'onadan boshlab o'zini ko'rsata bilishi lozim va hatto shart bu. Nega? Chunki qiyinchiliklar insonni toblaydi, mutaxassis sohaga oid zarur ko'nikmalarga ega bo'ladi, shu paytgacha ota-onasi qaramog'ida yurganida his qilmagan narsani - pul oson topilmasligini anglab yetadi. Eng muhimi - vaqt o'tgani sayin turtina-surtina tajribasini oshirib boradi.

Ishsizlik bu shunday yomon illatki mamlakat rivojlanishi yo'lida to'siq bo'luvchi bir omil bo'lishi mumkin. Ammo ishsizlikni to'la bartaraf qilishni iloji yo'q lekin uni yuqori darajada kamaytirish mumkin. Ishsizlik nazariyasida ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini masalalari alohida o'rinda turadi. Ishsizlik birinchi navbatda mavjud bo'lgan ishchi kuchidan to'la foydalanmaslik demakdir. Buning zarari albatta davlat uchun bo'ladi. Agar davlat ishlamoqchi bo'lgan va ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan har bir kishiga yetarlicha ish o'rni yaratib bera olmasa potensial tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish yo'qoladi. Mahsulot bo'lmagan ishlab chiqarishda, ishsizlikning iqtisodiy xarajatlari namoyon bo'ladi. Yalpi milliy mahsulotning haqiqiy hajmi va yaratilishi mumkin bo'lgan, ammo ishlab chiqarilmaydigan potensial o'rtasidagi farq odatda yalpi ichki mahsulotning orqada qolishi deyiladi.

¹ Makroiqtisodiyot, N.M.Shaxmurodov.

Buni A.Ouken qonuni bo'yicha hisoblaydigan bo'lsak: agar haqiqiy ishsizlik darajasi tabiiy darajadan 1 % ga ko'tarilsa, Yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi ortda qolishi 2.5% ni tashkil etadi. Bu degani mamlakat iqtisodiyoti rivojlanish o'rniga pasayadi degani. Ammo bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan ishsizlikning tabiiy darajasi ko'tariladi. G'arb mamlakatlarida 70- 80 yillarda ishsizlikning tabiiy darajasi 3-4 % edi, bugungi kunda esa 5-6 % ni tashkil qiladi. Rossiyada ushbu ko'rsatkichlarni barqaror pas tinflyatsiya yo'qligi va yuqori yashirin ishsizlik mavjudligi sababli aniqlash qiyin. Ishsizlik darajasi qanchalik ko'p bo'lsa mamlakat shunchalik qashshoqlashadi. Ko'pchilik sohalar orqaga ketadi, rivojlanish kamayadi. Bundan kelib chiqadiki ishsizlik bir qancha salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. ²

Bu borada bizda bir qancha takliflar bor:

- Ayollarni ish bilan ta'minlash uchun "Home work programmes"larni rivojlantirish va ommalashtirish;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholiga bu uchun imkoniyatlar yaratib berish;
- Aholi o'rtasida qo'l mehnatidan yaratilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish, uni qadrini oshirish va aholiga bu uchun imkoniyatlar yaratib berish;
- Bitiruvchilarni maksimum darajada ish bilan qamrab olish, yoki ularga sohasi bo'yicha biror ish qilish uchun imkoniyat yaratib berish;
- Maqsadli yoshlarni qo'llab-quvvatlash.

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ishsizlik davlat iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bir qancha omillarga xususan, aholining sof daromadiga, uning to'yinganligiga, YaIM o'sishi yoki pasayishiga, mamlakat rivojlanishi va boshqa nafaqat iqtisodiy balki, ijtimoiy tarafdin ham ta'sirga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baltaboyeva G.R, Ergashev E.I va boshqalar. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish muammolari va yechimlari. – T:“Iqtisod – moliya” nashriyoti, 2021-yil
2. Бахридинова Ш. Ш., Advanced Foreign Experiences on Private Business Activity and its Development ISSN: 2795-8612 // European Journal of Innovation in Nonformal Education.- Mar - 2024 60-63.
3. Рахматуллаева Ф., Шаробиддинов А. YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanit
4. Makroiqtisodiyot, N.M.Shaxmurodov.

² Baltaboyeva G.R, Ergashev E.I va boshqalar. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish muammolari va yechimlari. – T:“Iqtisod – moliya” nashriyoti, 2021-yil